

FONETIK USLUBIYAT MASALALARI

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi F.F.D.D. Professor

Usmonov Farhodbek Faxriddinovich

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Axmadjonova Nafisaxon Akmaljon qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada fonetik uslubiyatning nazariy asoslari, uning asosiy tushunchalari va stilistik funksiyalari yoritilgan. Muallif fonetik stilistikaning nutq tovushlari orqali ta’sirchanlikni oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Unli va undosh tovushlarning takrorlanishi, alliteratsiya, assonans, tovushga taqlid kabi usullar orqali nutqqa emotsiyal va ekspressiv tus berilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, she’riy nutqda fonetik vositalarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada fonetik ekspressiya usullari — unli cho‘zilishi, kuchli talaffuz, undoshni ikkilantirish, ohang va urg‘u o‘zgarishi kabilar misollar bilan tushuntirilgan. Nutqdagi intonatsiya, pauza, ritm va temp kabi supersegmental elementlarning fonostilistik tahlilidagi o‘rni ham yoritiladi. Maqola fonetik-stilistik vositalarning badiiy, notiqlik, jurnalistik va boshqa nutq uslublaridagi ifodaviy imkoniyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: intonatsiya, ritm, temp, fonetik uslubiyat, fonetik stilistika, nutq tovushlari, alliteratsiya, supersegmental birlik, fonetik ekspressiya, urg‘u, ohang, stilistik vosita, emotsiyal ta’sir, talaffuz assonans.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические основы фонетического стилистического направления, его основные понятия и стилистические функции. Автор анализирует роль фонетической стилистики в повышении выразительности речи посредством звуков речи. Показано, как с

помощью таких приёмов, как повторение гласных и согласных звуков, аллитерация, ассонанс, звукоподражание, речь приобретает эмоциональный и экспрессивный оттенок. Особенное подчёркивается значение фонетических средств в поэтической речи. Также в статье разъясняются приёмы фонетической экспрессии — удлинение гласных, усиленное произношение, удвоение согласных, изменение интонации и ударения с примерами. Освещается также роль супрасегментных элементов, таких как интонация, пауза, ритм и темп в фонетико-стилистическом анализе. Статья служит глубокому изучению выразительных возможностей фонетико-стилистических средств в художественном, ораторском, журналистском и других стилях речи.

Ключевые слова: интонация, ритм, темп, фонетическое стилеведение, фонетическая стилистика, звуки речи, аллитерация, супрасегментная единица, фонетическая экспрессия, ударение, интонация, стилистическое средство, эмоциональное воздействие, произношение, ассонанс.

Annotation: This article explores the theoretical foundations of phonetic stylistics, its key concepts, and stylistic functions. The author analyzes the role of phonetic stylistics in enhancing the expressiveness of speech through sound. It highlights how methods such as the repetition of vowels and consonants, alliteration, assonance, and onomatopoeia add emotional and expressive nuance to speech. The importance of phonetic devices in poetic language is especially emphasized. The article also explains phonetic expression techniques — vowel lengthening, strong articulation, consonant doubling, changes in intonation and stress, all supported with examples. Furthermore, the role of suprasegmental elements such as intonation, pause, rhythm, and tempo in phonostylistic analysis is examined. The article contributes to a deeper understanding of the expressive potential of phonetic-stylistic tools in artistic, rhetorical, journalistic, and other styles of speech.

Keywords: intonation, rhythm, tempo, phonetic stylistics, phonostylistics, speech sounds, alliteration, suprasegmental unit, phonetic expression, stress, pitch, stylistic device, emotional effect, articulation, assonance.

Bilamizki, fonetika nutq tovushlari va nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati, holati, tovush o'zgarishi qonuniyatlarni, uning intonatsiya, ohang, ritm va temp kabi masalalarini tekshiradi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanlikni oshirishni turlari turli xil hisoblanadi. Nutqni emotsiyal va ifodali qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrorlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni ohangdor qilishning xilma-xil shakllari va usullari o'z tabiatini va mohiyati bilan asosan sheriylar nutqqa xosdir. Poetik nutq ohang jihatdan ma'lum tartibga solingan. his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan. Hayajonli ritmik nutqdir. Poeziyada nutqni ohang jihatdan ma'lum tartibga soluvchi, tanituvchi, bildiruvchi vositalarni (masalan, ritm, qofiya, radif, bandlarni) keng qo'llash xarakterlidir. Shuning uchun she'r tuzilishi fonetik stilistikaning maxsus sohasi sifatida alohida ajralib turadi. Shunday qilib, Fonetik uslubiyatning Fonetik ekspressiya bilan hamkorlikda ish olib borishi yuzasidan qaralganda tildagi ayrim vositalarning o'z vazifasidan tashqari uslubiy-ekspressiv vazifalari ham mavjud bo'lib, foydalanish jihatidan ularning o'rmini to'g'ri belgilash muhim sanaladi.¹ Fonetik stilistika esa tovushlarning bir-biriga bog'lanishining ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini, ya'nini nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganadi.¹ Alliteratsiya she'rda, jumladna, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan ohangdorlik alliteratsiya hisoblanadi.¹

Qaro qoshing, qalam qoshin

Qayiq qayrilma qoshing, qiz,

Qilur qatlimga qasd, qayrab

Qilich qotil qaroshing, qiz...

Erkin Vohidovning "Qaro qoshing" she'rini misol keltirishimiz mumkin. Bu she'rda "Q" undoshi alliteratsiyani yuzaga keltirgan.

¹ Shomaqsudov .A.Ozbektili stilistikasi. Toshkent.1983-YIL.7-bet.

Suprasegmental elementlar – ya’ni melodika, dinamika, nutq tempi, pauza, ritm va aksentuatsiya – matnning umumiy ohangini va uslubiy ta’sirini belgilovchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bu elementlar tovushli matnlarni makrosegmentatsiya asosida tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Fonetik-stilistik tahlilga olinadigan matnlar uslubiy jihatdan turli-tuman bo‘lishi mumkin: jurnalistik, ilmiy, notiqlik, badiiy, biznes, neytral va boshqa uslublar fonetik jihatdan chuqur o‘rganiladi. Ritmik tuzilma (RT) – bu urg‘u bilan ajralib turuvchi bo‘g‘inlar majmuasi bo‘lib, ular bitta markaziy urg‘u atrofida birlashadi. Bu birliklar nutqdagi tovush va bo‘g‘inlarning tartibli tizimini ifodalaydi. "Ritmik tuzilma" tushunchasi bu jihatdan "fonetik so‘z"dan farq qiladi, chunki u ritmga asoslangan tovushlar tizimini ko‘zda tutadi. Sintagma – bu nutqning semantik jihatdan yakunlangan va fonetik birlik sifatida ajralib turuvchi qismi bo‘lib, bir fikr yoki mazmunni ifodalovchi segmentdir. Sintagma, ko‘pchilik fonetiklar ta’kidlaganidek, semantik va formal jihatdan yaxlit birlik bo‘lib, u intonatsion-semantik birlik hosil qilish xususiyatiga ega. Jahon tilshunosligida, shu jumladan rus tilshunosligida ham stilistika tilning mohiyati va vazifalarini chuqur tahlil qilish natijasi o’laroq fan sifatida ajralib chiqdi va rivojlanish yo’liga kirib oldi. V.Gumboldt, I.A. Boduen de Kurtene, F. Sossyur, G.O. Vinokur, A.P. Yakubinskiy, Ya. Gort, V.V Vinogradov, N.Yu. Shvedova kabilar nutqni o‘rganishga katta e’tibor berdilar. Va nihoyat, lingvistik stilistika shakllandi. Nutq hodisalari chuqur o‘ganila borgan sayin ilmiy tadqiqot obyektiga aylana boshladi.²

Fonetik ekspressiya hosil qiluvchi vositalar asosan quyidagilardan iborat:

a) Unlini cho‘zish. Ma’lum bir so‘zda unlini cho‘zish orqali so‘zlovchi o‘sha unli ishtirok etgan so‘zning ma’nosini bo‘rttiradi, diqqatni aynan shu so‘zga qaratadi, nutq jarayonida unga qo‘srimcha ma’no yuklaydi va shu tarzda ekspressivlik hosil qiladi:

-Juuuudaaaa charchadim!

² Iminov .M.Nomonov T.Boboxonova D.”Ozbek tili uslubiyati masalalari”. Namangan.nashri.2007-yil.

-U yerda nihoyaaaat baland bino bor edi.

-Men shuuuu qizni tanimayman.

b) Unlini kuchli talaffuz qilish. Bu holatda so‘zlovchi nutqiga keskinlik ohangini beradi, fikrining qat’iy va ishonchli ekaniga urg‘u beradi, aniqlanuvchining boshqa shu turdagи birliklardan ajralib turishini ta’kidlaydi. Natijada, butun gapga qo‘shimcha ma’no yuklanadi:

- Bu ishni, albatta, bajaraman!

- Men hoziroq ketaman!

- U hech qachon kechirmaydi.

c) Undosh tovushni ikkilantirish. Bu usul orqali so‘zlovchi fikr obyektiga nisbatan o‘z munosabati, his-tuyg‘ularini bildiradi, ma’noni kuchaytirishga intiladi va undoshi ikkilangan so‘zga diqqatni jalb etadi: U essiz ayol edi.

d) Ohang (intonatsiya). Gapdagi ohang yordamida nafaqat mazmun o‘zgaradi, balki piching, kesatiq, jerkish, achinish, kojish, shodlik va quvonch kabi kayfiyatlar ham ifodalanadi. Intonatsiya ma’noni kuchaytirish va bo‘rttirishga xizmat qiladi: Ha, bo‘lmasam endi men aybdorman-da?! Voy, bu qanchalik chiroqli-yey!

e) Urg‘u. Urg‘u o‘z o‘rnida qo‘llanganda odatiy ohangda eshitiladi, lekin uning joyi almashganda ma’lum bir uslubiy vazifani bajaradi va nutqqa ekspressivlik bag‘ishlaydi (Misol: U **ketdi**, U ketdi.)

Demak, fonetik uslubiyat — bu tilning fonetik vositalari orqali nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim soha hisoblanadi. Unli va undosh tovushlarning uyg‘unligi, intonatsiya, urg‘u, ritm, pauza va boshqa fonetik elementlarning nutqqa emotsiyal tus berishdagi roli misollar bilan asoslangan. Ayniqsa, she’riy va badiiy matnlarda tovush vositalari orqali ifoda kuchini oshirish imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiqidir. Fonetika va stilistikaning o‘zaro uyg‘unligi asosida fonetik uslubiyat tahlilida segmental va suprasegmental birliklarning har biri o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu

boisdan, fonetik uslubiyatni o‘rganish, tilda mavjud tovush vositalarining stilistik qiymatini to‘g‘ri belgilash va ulardan samarali foydalanish adabiy nutqning ta’sirchanligini oshirishda muhim o‘rin tutadi³.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shomaqsudov. A. O’zbek tili stilistikasi. Toshkent. 1983-yil.7-bet.
2. Iminov M ., Nu’monov T. Boboxonova D. „O’zbek tili uslubiyati masalalari”.«Namangan» nashriyoti.2007-yil.
3. Xaitov N. Tovush hodisalari va ularning stilistik vosita sifatidagi ifodasi. –Fan, 1998.
4. Jo‘rayev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining fonetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Jo‘rayev M. Fonetik stilistika masalalari. – Toshkent: Fan, 2003.

³ Xaitov N. Tovush hodisalari va ularning stilistik vosita sifatidagi iifodasi.fan. 1998-yil.